

HUQUQIY MATNLAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA ULARDA TARJIMA STRATEGIYALARINING QO'LLANILISHI

Eshonbuvayeva Mubinaxon
Magistratura 2-bosqich talabasi

Abstract. So'nggi o'n yilliklarda davlatlar va xalqlar o'rtasida globallashuv jarayoni kuchayib, o'zaro yangi iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarga keng yo'l ochilmoqda. Davlatlar o'rtasidagi hamkorlik va xalqaro munosabatlarning kengayishi huquqiy tarjimaga bo'lgan ehtiyojni ham sezilarli darajada kuchaytirib yubordi. Huquqiy matnlar tarjimasi o'zining huquqiy asosga tayanganligi, aniq va barqarorligi, ma'lum bir qolipga egaligi bilan tarjimonlar uchun biroz qiyinchilik keltirib chiqarishi mumkin. Mazkur maqola huquqiy matnlar tarjimasida tarjima strategiyalarining qo'llanilishini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish hamda real hujjat ya'ni ishonchnoma asosida ularning ishlash mexanizini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Huquqiy matnlar, tarjima metodlari, ekvivalentlik, leksik-semantik transformatsiya, madaniyatlararo kommunikatsiya, bijural tizim.

Kirish. Huquqiy matnlar tarjimasi tarjimonlar uchun tarjima qiyinchiliklarining yana bir bosqichi hisoblanadi. Chunki bunday matnlar tarjimasida aniqlik, mantiqiy va terminologik izchillik muhim ahamiyat kasb etadi hamda o'zi tegishli jamiyatning huquqiy qonunchiligiga tayangan bo'lganligidan katta e'tiborni talab qiladi. Shu boisdan, huquqiy matnlarni tarjima qilish jarayonida nafaqat lingvistik, balki ijtimoi-madaniy omillarni ham hisobga olish kerak. Huquqiy matnni tarjima qilishda uning mazmuniy va funksional jihatdan asl matnga ekvivalent bo'lishi asosiy maqsad hisoblanadi. Xususan, ikki tilshunos olimlar Maurizio Gotti va Susan Šarčević ning "Insights into Specialized Translation" (Gotti&Šarčević, 2006) asarida ta'kidlaganidek, bugungi kunda ko'plab huquqiy matnlar xalqaro darajada ishlab chiqilib, keyinchalik milliy darajada tarjima qilinadi. Natijada, huquq tizimi tobora milliy doiradan chiqib, xalqaro xarakter kasb etmoqda. Bu esa turli huquqiy tizimlarga mansub hujjatlarni tarjima qilishda murakkablikni yuzaga keltiradi. Shu sababdan, tarjimon matnni tarjima qilishda ortiqcha erkinlikka yo'l qo'ymasligi, har bir birlikning huquqiy yuklamasini to'g'ri yetkazishi lozim.

Asosiy qism. Huquqiy matnlar tarjimasi tarjima faoliyatining maxsus, ixtisoslashgan sohasi bo'lib, tarjimondan muayyan bilim va ko'nikmalarni talab qiladi. Huquqiy matnlar maxsus matnlar sifatida bir qator o'ziga xosliklarga ega bo'lib, ular tarjima jarayonida ham aslidek saqlanib qolishi muhimdir. Bunday matnlarda metafora, metanimiya kabi uslubiy vositalar qo'llanilmaydi, ular aniq, lo'nda, mantiqiy va strukturaviy izchillikda ifodalanadi hamda emotsional ekspressiv vositalardan deyarli foydalanilmaydi. Huquqiy tarjima va yuridik til muammolari bo'yicha tadqiqot olib borgan olim, tarjimashunos Vilceanu o'zining "Dynamic interfaces of translation, pragmatics and intercultural communication" asarida aytib o'tganidek, huquqiy til maxsus standartlashtirilgan terminologiya yoki yangilangan atamalar lug'ati mavjud bo'lmaganda tarjimon uchun ham kata muammo tug'dirishi mumkin. Bunday holat huquqshunos amaliyotchilar uchun ham tarjima qilingan matnni talqin qilish, moslashtirish va qo'llahs jarayonida qiyinchiliklar keltirib chiqaradi (Vilceanu, 2017: 114). Huquqiy tarjima oddiy lingvistik jarayon emas, balki murakkab ijtimoiy-huquqiy

va madaniy hodisa hisoblanadi. Chunki tarjima jarayonida nafaqat til birliklari, balki huquqiy tizimlar, qonunchilik me'yorlari, madaniy kontekst va diskurs xususiyatlari ham hisobga olinadi. Shu sababli huquqiy tarjima ko'pincha interlingvistik va bijural jarayon sifatida qaraladi. Tarjima jarayonining turli kamchiliklardan va uslubiy hamda mantiqiy noaniqliklardan saqlash maqsadida turli tarjima strategiyalari bir-biri bilan integratsiya qilgan holatda tarjima jarayonida ishtirok etadi. Davlatlarning huquq tizimi, qonun va me'yorlari shakllanish bosqichlari o'sha davlat va xalqlarning tarixiy rivojlanish bosqichlari, madaniy kamol topish davrlariga izchil bog'liq bo'lganligidan tarjimondan bu sohalar ham ma'lumotga ega bo'lishi talab qilinadi. Tarjima qilinayotgan matnni to'liq va to'g'ri tushunish tarjima mahsulining aniq va tushunarli bo'lishining asosiy kalitidir (Chroma, 2008). Huquqiy matnlar, asosan, rasmiy-idoraviy uslubga xos bo'lgan aniqlik va bir xillikni ta'minlovchi tarjima strategiyalaridan foydalanilgan holda tarjima qilinadi.

Huquqiy matnlar tarjimasida formal ekvivalentlik qolgan tarjima strategiyalariga nisbatan faolroq qo'llaniladi. Bu tarjimada manba matnning shakli, grammatik tuzilishi va leksik birliklarini imkon qadar saqlab qolishga qaratilgan strategiya bo'lib, ayniqsa, huquqiy matn tarjimasida keng qo'llaniladigan yondashuvlardan biri hisoblanadi. Formal ekvivalentlik terminlarni aynan holda saqlashga xizmat qiladi. Misol uchun, "Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalari yuzasidan iltimosnomalar, arizalar va ularga ilova qilinadigan hujjatlarni qabul qilish, ko'rib chiqish hamda qaror qabul qilish tartibini belgilaydi"⁷ gapining ingliz tilidagi "This Regulation shall determine the procedure for receiving and considering petitions, applications and documents attached to them on issues of citizenship of the Republic of Uzbekistan, as well as adoption of decisions on them"⁸ tarjimasida formal ekvivalentlik tarjimada asos qilib olingan hamda quyidagi tarjima strategiyalari ma'noni va shaklni saqlab qolish vazifasini bajaradi:

1. Grammatik transpozitsiya – "belgilaydi" ifodasining "shall determine" shaklida tarjima qilinganida qo'llanilgan bo'lib, oddiy fe'l shaklini modal infinitive shakliga o'zgarishida kuzatilgan. Bunday o'zgarishning asosiy sababi shundaki, matn o'quvchiga tabiiyroq va "Legal English" qoidalariga moslashtirilgan, majburiyat, normativlik va qonuniy talabni ifodalovchi mazmunda bo'lishidadir.

2. Sintaktik transformatsiya – ya'ni gap qurilishining o'zgarishi qo'llanilgan, bo'lib ingliz tilining SVO strukturasi qat'iy amal qilingan. Huquqiy matnlar tarjimasida esa bu faoliyat oddiy tarjima bo'lib qolmay, huquqiy moslashtirish sifatida qaraladi. Umuman olganda huquqiy tarjima boshqa turdagi matnlar tarjimasidan majburlovchi va talqin etuvchi uslubi bilan ajralib turadi hamda tarjimondan xuddi o'sha yuridik ta'sirni saqlab qolishni talab qiladi. Shu bilan birga, tarjimon o'zi tarjima qilayotgan matnning manba tili va maqsadli til auditoriyasining huquq tizimlari va ularning o'xshash va farqli jihatlari haqida ham ma'lumotga ega bo'lishi kerak (Sandrini, 2008). "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalari yuzasidan qabul qilingan iltimosnomalar yoki arizalar O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalariga oid "E-Fuqaro" idoralararo ma'lumotlar bazasida (keyingi o'rinlarda — "E-Fuqaro" IMB) ro'yxatdan o'tkaziladi. Ariza beruvchining talabiga binoan uch ish kuni ichida uning iltimosnomasi yoki arizasi qabul qilinganligi va ro'yxatdan

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-martdagi PF-6185 –son Farmoni <http://lex.uz/docs/5325578>

⁸ Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, March 10, 2021, No. DP- 6185 <http://lex.uz/docs/5685156>

o'tkazilganligi to'g'risida sanasi ko'rsatilgan holda ma'lumotnoma beriladi" va uning ingliz tilidagi tarjimasida "Accepted petitions or applications on citizenship issues of the Republic of Uzbekistan shall be registered in the interdepartmental database on citizenship issues of the Republic of Uzbekistan "E-Fuqaro" (hereinafter referred to as IDB "E-Fuqaro"). At the request of the applicant, within three working days, a certificate shall be issued indicating the date of acceptance and registration of his petition or application". Yuqoridagi matn qismlarining tarjimasida yuridik diskursni saqlab qolish va axborotning huquqiy aniqligini ta'minlashga qaratilgan bir nechta muhim strategiyalar qo'llanilgan.

1. Grammatik transformatsiya – gapning tuzilishi o'zgargan, ammo leksik ma'no saqlangan, ya'ni "ro'yxatdan o'tkaziladi" → "shall be registered" shaklida ingliz huquqiy tizimida "shall be + Past Participle" strukturasi jarayonning qat'iy tartibda bajarilishi shartligini bildiradi.

2. Leksik kompensatsiya va kengaytirish – o'zbek tilidagi qisqa ifodalangan iboralar ingliz tilida huquqiy bo'shliq qoldirmaslik uchun kengroq tushuntiriladi, ya'ni "sanasi ko'rsatilgan holda" → "indicating the date of acceptance and registration" shaklida shunchaki sana deb emas, qaysi sana ekanligi konkretizatsiya strategiyasi orqali ochib berilgan. Bu huquqiy hujjatning tarjimasida turli xil tushunochiliklarning oldini oladi.

3. Sintaktik transformatsiya va urg'u berish (emphasis) – "uch ish kuni ichida uning... ma'lumotnoma beriladi" → "At the request of the applicant, within three working days, a certificate shall be issued..." shaklida ingliz tilida gapning shartli qismi va vaqti gap boshiga chiqarilgan. Urg'u berish (emphasis) strategiyasi yordamida asosiy e'tiborni harakatning bajarilish muddati va shartiga qaratadi.

4. Terminologik ekvivalentlik - soha mutaxassislariga tushunarli standart terminlardan foydalanilgan, ya'ni "Ma'lumotnoma" → "Certificate", "Ariza beruvchi" → "Applicant", "Iltimosnoma" → "Petition".

Farmonning 5-bandining o'zbek va ingliz tilida keltirilgan versiyalarining tarjimasida qo'llanilgan tarjima strategiyalarini ko'rib chiqsak: "Iltimosnoma, ariza va so'rovnoma qo'lda yoki texnik vositalarda to'ldiriladi. Ularni to'ldirishda qisqartma yoki abbreviatura qo'llashga yo'l qo'yilmaydi. So'rovnomadagi javoblar to'liq yoritilgan, hujjatlar matni tushunarli va tuzatishlarsiz bo'lishi lozim".

"The petition, application and questionnaire shall be filled in manually or by technical means. When filling them out, the use of shortenings or abbreviations shall not be allowed. In the questionnaire, the answers should be fully covered, the text of the documents should be clear and without corrections". Matn huquqiy hujjatlarni rasmiylashtirish tartibiga oid bo'lib, tarjimada aniqlik, rasmiylik va imperativlik tamoyillariga tayangan holda quyidagi strategiyalar orqali tarjima qilingan:

1. Grammatik transformatsiya va modallik qo'shish – o'zbek tilida berilgan "...to'ldiriladi" ifodasi ingliz tilining rasmiy uslubiga moslashtirilgan "shall be filled in" shaklida tarjima qilingan.

2. Leksik-semantik transformatsiya – ayrim so'zlar ingliz tilidagi huquqiy kontekstga mos ravishda aniqroq terminlar bilan berilgan: "texnik vositalarda" → "by technical means", "javoblar to'liq yoritilgan" → "answers should be fully covered". "Yoritilgan" ifodasi o'zbek tilida metaforik ma'noga ega bo'lsa-da, tarjima uning semantik ma'nosi – "qamrab olingan" (covered) ifodasi bilan almashtirilgan. Tarjimada

Formal Equivalence ustunlik qilib, bu, o'z navbatida, hujjatning rasmiy ohangini saqlab qolishga xizmat qilgan.

3. Modulyatsiya – ma'no nuqtayi nazarini o'zgartirish: “qisqartma yoki abbreviatura qo'llashga yo'l qo'yilmaydi” → “the use of shortenings or abbreviations shall not be allowed” shaklida passiv va normativ shakl tanlanib, ingliz huquqiy diskursiga moslashtirilgan.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan tarjima jarayonidan misollarda ko'rinib turganidek, huquqiy matnlar tarjimasi tarjimondan yuqori aniqlik va mas'uliyat talab etadigan murakkab faoliyatdir. Bunday matnlarda nafaqat mazmun, balki shakl, terminologiya va normativ ifoda ham huquqiy kuchga ega bo'lganligi sababli, tarjimon har bir birlikni ehtiyotkorlik bilan tanlanishi zarur. Mazkun tarjima turli strategiyalarni qo'llash ham o'z xususiyatlarga ega. Xususan, formal ekvivalentlik huquqiy matnlarning asosiy tayanchi bo'lib, u matnning struktura va terminologik aniqlikni saqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ayrim hollarda modulyatsiya, transpozitsiya va leksik-semantik transformatsiya kabi strategiyalar ham zarur bo'lib, ular til izimlari o'rtasidagi farqlarni bartaraf etish va matnni maqsad til normalariga moslashtirish imkonini beradi. Huquqiy tarjima – bu nafaqat lingvistik, balki huquqiy bilim va kasbiy kompetensiyani talab qiluvchi murakkab jarayon bo'lib, unda tarjima strategiyalarini to'g'ri tanlash va uyg'un qo'llash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Samarali huquqiy tarjima aniqlik, izchillik va normativlik tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirilgandagina o'z vazifasini to'liq bajara oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – 240 b.
2. Raximov G'. X. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2016. – 175 b.
3. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: Fan, 1983. – 320 b.
4. G'afurov I. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2012. – 280 b.
5. Chromá, M. "Semantic and Legal Interpretation: Two Approaches to Legal Translation." *Language, Culture and the Law*. 2008. - (pp. 303–316). Bern: Peter Lang.
6. Gotti M., Šarčević S. *Insights into Specialized Translation*. – Bern, 2006.
7. Newmark P. *A Textbook of Translation*. – New York, 1988. – 292 p.
8. Nida E. A. *Toward a Science of Translating*. – Leiden: Brill, 1964. – 331 p.
9. Vilceanu T. *Dynamic Interfaces of Translation, Pragmatic and Intercultural Communication*. – Craiova: Universitaria Publishing House, 2012. – 180 p.
10. Бархударов Л. С. *Язык и перевод*. – М., 1975. – 240 с.
11. Комиссаров В.Н. *Теория перевода*. – М.: Высшая школа, 1990. – 253 с.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-martdagi PF-6185 –son Farmoni <http://lex.uz/docs/-5325578>
13. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, March 10, 2021, No. DP-6185 <http://lex.uz/docs/5685156>